

GEOTIZIMLARDA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHDA EKOLOGIK TALABLARNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI

Raimov Sherbekjon Ismatillayevich
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti, O‘zbekiston
raimov.sherbekjon.94@com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21206521>

Annotatsiya: Ushbu maqola hududiy geotizimlarda barqaror rivojlanishini ta’minlash mumkin bo’lgan ekologik xavflarning oldini olish masalalari yoritilgan bo’lib, hududlardagi ekologik muammolar va ularning yechimida ekologik talablarni keng joriy etishning o’rni hamda ahamiyati tahlil qilingan. Barqaror rivojlanish va milliy ekologik xavfsizlikni ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi”da 2030-yilgacha belgilangan ustuvor yo’nalishlar — atmosfera havosi, suv, yer, tuproq, yer qa’ri, biologik xilma-xillik hamda qo’riqlanadigan tabiiy hududlarni antropogen va boshqa salbiy ta’sirlardan himoya qilish, ularning ekologik sifatini saqlab qolish hamda yaxshilashga qaratilgan ekologik talablarni ishlab chiqishning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Geotizim, ekologik xavf, ekologik talab, ekologik xavfsizlik, milliy ekologik siyosat, atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, ekologik muammolar, antropogen ta’sir, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish.

ЗНАЧИМОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕБОВАНИЙ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ГЕОСИСТЕМАХ

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы предотвращения экологических рисков, которые могут препятствовать обеспечению устойчивого развития в региональных геосистемах. Анализируются экологические проблемы на территориях и подчеркивается роль и значение широкого внедрения экологических требований в их решении. В целях обеспечения устойчивого развития и национальной экологической безопасности в «Концепции охраны окружающей среды Республики Узбекистан» определены приоритетные направления до 2030 года — защита атмосферного воздуха, воды, земли, почвы, недр, биологического разнообразия и особо охраняемых природных территорий от антропогенных и иных неблагоприятных воздействий. В статье раскрыта научная и практическая значимость разработки экологических требований, направленных на сохранение и улучшение их экологического качества.

Ключевые слова: Геосистема, экологический риск, экологическое требование, экологическая безопасность, национальная экологическая политика, Концепция охраны окружающей среды, экологические проблемы, антропогенное воздействие, рациональное использование природных ресурсов.

THE SIGNIFICANCE OF IMPLEMENTING ENVIRONMENTAL REQUIREMENTS IN ENSURING ECOLOGICAL SECURITY WITHIN GEOSYSTEMS

Annotation: This article addresses the issues of preventing ecological risks that may hinder sustainable development within regional geosystems. It analyzes the ecological

problems in specific territories and emphasizes the role and significance of broadly implementing ecological requirements in their resolution. In order to ensure sustainable development and national ecological security, the “Concept of Environmental Protection of the Republic of Uzbekistan” outlines priority directions until 2030 — including the protection of atmospheric air, water, land, soil, subsoil, biodiversity, and protected natural areas from anthropogenic and other adverse impacts. The article reveals the scientific and practical importance of developing ecological requirements aimed at preserving and improving their environmental quality.

Keywords: *Geosystem, ecological risk, ecological requirement, ecological security, national environmental policy, Concept of Environmental Protection, environmental problems, anthropogenic impact, rational use of natural resources.*

XXI asrning choragiga kelib insoniyat o‘z taraqqiyoti yo‘lida jadal sur‘atlarda rivojlanib, o‘z taraqqiyot yo‘lida yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda. So‘nggi vaqtlarda barcha sohalarga AI (“artificial intelligence”- sun‘iy idrok) tizimlari chuqur kirib kelmoqda. Bugun tabiat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarida industiriyaning atrof-muhitga ko‘rsatayotgan salbiy oqibatlarini umumiy hajmi yildan yilga o‘sib, ekologik muammolarning tobora keskinlashuvida nomoyon bo‘lmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida tabiat va insoniyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bugun har doimgidan ham eng yuqori pog‘onaga yetib keldi. Buning natijasida geotizimlarda antropogen ta’sir qamrovi yil sayin oshib bormoqda va ta’sir ko‘lami jihatdan kattalashib (lokal darajadan global drajagacha) ekologik inqirozni yuzaga keltirmoqda. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra global ahamiyatga ega 15 ta ekologik muammolar Yer sayyorasida jadal suratlarda rivojlanib o‘zining salbiy oqibatlarini namoyon etmoqda. Birgina 2024-yil va 2025-yilning iyul oylari Yer sayyorasi tarixida eng issiq yil va oy sifatida e’tirof etildi. Global miqyosda o‘rtacha havo harorati 2023-yilga qaraganda 0,12° C yuqori bo‘lgan. 100-yil ichida esa o‘rtacha harorat 1,2–1,8° C ga oshgan. Insoniyat taraqqiyoti oldida bugun jiddiy xavf-xatarga aylanib borayotgan muammolar ro‘yxatida ekologik xavfsizlik muammosi global ahamiyatini kengaytrib, dunyo hamjamiyati kun tartibidagi dolzarb ahamiyatini tobora nomoyon etib bormoqda.

2025 yildagi Barqaror rivojlanish maqsadlari hisobotiga ko‘ra, SDG (“Sustainable Development Goals”-Barqaror rivojlanish maqsadlari) maqsadlarining atigi 35 foizi to‘liq yo‘lda yoki o‘rtacha darajada ilgarilamoqda. Ularning deyarli yarmi juda sekin siljimoqda, xavotirli tomoni shundaki, 18 foizi orqaga ketmoqda. Biz global rivojlanish bo‘yicha favqulodda holatga duch keldik. Hozirda 800 milliondan ortiq insonlar o‘ta qashshoqlik domida qolgan. Atmosferadagi karbonat angidrid (CO₂) darajasi so‘nggi 2 million yildagi eng yuqori ko‘rsatkichga chiqdi, 2024-yil esa tarixdagi eng issiq yil bo‘ldi — 1,5°C chegara darajasi oshib ketdi. Ushbu antropogen omillar ta’sirida yuzaga kelayotgan ekologik muammolar geotizimlar qamrovida har-bir mamlakat va mintaqada o‘zaro uzviylikda yoki alohida kishilik jamiyatining tabiatga bo‘lgan munosabati ta’sirida tobora chuqurlashib lokal darajadagi ekologik xavflarni tobora rivojlanishiga sabab bo‘lmoqda va global darajada integratsiyalashuvga olib kelmoqda. Natijada ekologik xavf-xatarlar yer yuzasi bo‘ylab yoki geografik muhitda chegara bilmasligi geotizimlardagi har qanday kichik salbiy o‘zgarishlarning salbiy oqibatlari kelgusida global darajadagi ekologik xavf-xatarlarni vujudga keltirib chiqarishida muhim rol o‘ynayotganligini tobora nomoyon bo‘lmoqda. Jumladan yurtimiz hududida global darajadagi ekologik muammolar mavjudligi va ularning




yer yuzasining boshqa mintaqalarga ham ta’sir etayotganligi ilmiy jihatdan o‘z isbotini topgan.

O‘zbekiston – iqlim o‘zgarishi sezilarli darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatgan mamlakat. O‘zbekistonda o‘rtacha yillik harorat ko‘tarilib bormoqda va prognozlariga ko‘ra, bundan keyin ham o‘shishda davom etadi. Iqlim o‘zgarishi va ekstremal ob-havo hodisalari quruq issiqlik davrining cho‘zilishi, qor to‘planishining pasayishi va muzliklar degradatsiyasi, tekisliklar va tog‘ etaklarida bug‘lanishning ortishi, qurg‘oqchilik va haddan ortiq suv taqchilligi hodisalarining ko‘payishiga olib keldi. Mamlakatdagi ob-havo sharoiti yanada issiq va quruqroq bo‘lishi kutilmoqda. Anomal jaziramaning tez-tez va shiddatli davrlari, qurg‘oqchilik va yog‘ingarchilik shakllarining o‘zgarishi, sharros yomg‘ir, suv toshqinlari va sel kabi ushbu o‘zgarishlar bilan bog‘liq ekstremal ob-havo hodisalarining ko‘payishiga olib keladi. Iqlim o‘zgarishi tuproq degradatsiyasi va cho‘llanishni kuchaytiradi, shu bilan birgalikda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hamda bio xilma-xillik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Kuzatilayotgan ekologik muammolar yer yuzining qaysidir mintaqasi uchun tegishli bo‘lgan jarayonlar emas, balki mamlakatimizda ham biz allaqachon insoniyatning eng yirik fojialaridan biri – Orol dengizi qurishi oqibatlarini boshdan kechirmoqdamiz. Tahlillarga ko‘ra, Amudaryo va Sirdaryoda suv oqimi kamayishi natijasida 2040 yilga borib Markaziy Osiyo mamlakatlari yuqori darajadagi suv taqchilligiga duch keladi. Iqlim o‘zgarishi muammolari oziq-ovqat va energiya xavfsizligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mintaqa aholisi 25 yildan so‘ng 100 million kishidan ortishi kutilayotgan bir vaqtda unumli yerlar tez sur‘atlar bilan qisqarib bormoqda. Bugungi kunda mintaqadagi umumiy yer maydonining 20 foizdan ortig‘i degradatsiyaga uchragan. Chorak asrdan keyin hosildorlik uchdan bir qismga kamayib ketishi mumkin.

Insoniyat paydo bo‘lgan vaqtdan boshlab yer sharida ijtimoiy-iqtisodiy harakatlarni bosqichma-bosqich faol amalga oshirib kelmoqda. Kishilarning tabiat va undagi barcha tabiiy resurslardan o‘z ehtiyoji maqsadlarida foydalanib kelish xronologiyasida har-bir bosqichda antropogen ta’sirlarning geotizimlarga ta’siri va uning oqibatlari ta’sirida geotizim resurslari (Atmosfera havosi tarkibi, bio xilma-xillik, suv va uning mineral tarkibi, tuproqlar unumdorligi, relyeflar va hk.) xususiyatlari tobora jiddiy ravshida ta’sirga uchrab borayotganligida namoyon bo‘lib kelmoqda.



1-Surat. O'zbekistonda bioxilmaxillikning hozirgi holati

Rasmning rasmiy manbai.

Tabiat va jamiyatning o'zaro munosabat shakllari yillar davomida geotizimlarga antropogen ta'sirning ortib borishini tushunish, yuzaga kelayotgan ekologik oqibatlarining yechimini topishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu masaladaprofessor A. Nigmatov kishilik jamiyatining tabiatga ta'sirini quyidagi bosqichga ajratadi bular: *oddiy, odiy-iqtisodiy, iqtisodiy, iqtisodiy-ekologik, ekologik*

Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan munosabat shakli – muayyan davrdagi kishilarning atrof-tabiiy muhitga uzviy bog'langan hayot tarzi.

Jamiyatni tabiatga nisbatan munosabatlarini insoniyat tarixi nuqtai nazardan qaraganda, uni quyidagi shakllarga ajratish mumkin :

- Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan **oddiy** munosabat shakli;
- Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan **oddiy-iqtisodiy** munosabat shakli;
- Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan **iqtisodiy** munosabat shakli;
- Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan **iqtisodiy-ekologik** munosabat shakli;
- Kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan **ekologik** munosabat shakli.

Yuqorida keltrib o'tilgan tabiatga nisbatan jamiyatning ta'siri shakllari ichida milliy ekologik xavfsizlik nuqtai nazardan, jamiyatning tabiat va atrof-muhitga nisbatan **iqtisodiy munosabat** shakli bugun ko'proq nomoyon bo'lmoqda va ushbu jaryon intensiv ko'rinishda jadallashib borishi natijasida salbiy ekologik oqibatlarni keltrib chiqarmoqda. O'z navbatida bunday shakildagi munosabatlar natijasida so'nggi vaqtlarda hududlarda yangi ekologik xavflarni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa hududiy geotizimlarda mavjud ekologik muammolarni lokal darajadan global darajagacha rivojlanishiga sabab bo'lmoqda.

Global, mintaqaviy va mahalliy miqyosida mavjud ekologik vaziyatning murakkab bir davrida bebaho tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muammolarni hal etishning eng tezkor yo'llarini izlash, o'z navbatida milliy ekologik xavfsizlikni ta'minlash yo'lida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Hech kimga sir emaski, har bir nooqilona faoliyat muqarrar ravishda har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosi bo'lgan tabiiy muhit ob'ektlari va ularning holatiga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Ayniqsa rivojlanish ko'rsatgichlari jadallashayotgan yurtimizda jamiyatni tabiatga nisbatan

munosabat shaklini zamon bilan hamnafas holda ekologik munosabat shakliga o'tkazish muhim amaliy chora-tadbirlarni tezkor hayotga tadbqiq etish enh dolzarb ahamiyatdagi masala hisoblanadi.

Jamiyatning tabiatga nisbatan **ekologik** munosabat shakli — atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik tizimlarni qayta tiklash hamda sog'lomlashtirishga qaratilgan kishilarning hayot tarzi.

So'nggi yillarda O'zbekiston ekologik barqarorlikni ta'minlashga qat'iy intilishini namoyish etdi. Ana shu siljishlar munosabati bilan 2019-yilda Prezident qarori bilan ekologik xavf ta'sirida bo'lgan ekologik muammolarni, jumladan, daraxtlarni ommaviy kesish bilan bog'liq muammolarni hal qilishga qaratilgan “2030-yilgacha O'zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi” qabul qilindi. Shu bilan birga, “2019-2030 yillarga mo'ljallangan yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi” qabul qilindi (2-rasm), unda mamlakatning yashil rivojlanishga intilishi alohida ta'kidlangan. U energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanadigan manbalarga energiya sarfini diversifikatsiya qilish, iqlim o'zgarishiga moslashish, resurslardan samarali foydalanish va yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mexanizmlarini yaratish tarafdori.

Ushbu maqsadlarga erishishda hududiy geotizimlar doirasidagi muammolarni urgangan holda ekologik talablarni sohalar kesimida ishlab chiqish va ularni keng joriy etish ko'zlangan maqsadlarga erishishda muhim qadam bo'lib xizmat qiladi.



2-surat. 2022-2030 yillarda Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi

Shu o'rinda ekologik talablar tushunchasiga berilgan ta'riflarni tahlil qilsak.

Ekologik talablar — ekologik toza ishlab chiqarishni yaratish va rivojlantirish maqsadlarida ishlab chiqariladigan mahsulot, uni ishlab chiqaradigan texnologiyalar, umuman hayot tarziga qo'yiladigan ma'lum shart va chegaralar yig'indisi.

Ekologik xavfsizlik talablari — atrof-muhitga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida belgilanadigan va bajarilishi majburiy bo'lgan talablar;

Ekologik xavfsizlik — tabiiy muhit va insonning hayotiy muhim manfaatlarining xo‘jalik va boshqa faoliyat, tabiiy hamda texnogen tushdagi favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarining ehtimoliy salbiy ta’siridan himoyalanganlik holati. Yuqorida keltilgan ta’riflardan tashqari boshqa xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ham ekologik talab tushunchalari qisman qo‘llanilgan va ularning qarashlari bayon etilgan.

1-jadval

Adabiyotlarda “Ekologik talab” so‘zlar birikmasiga berilgan ta’riflar


Ta’rif	Manba
Ekologik talab – berilmagan	O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-j.– Toshkent.: “O‘ME DIN”, 2013
Ekologik talab – berilmagan	O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-j.– Toshkent.: “O‘ME DIN”, 2020. 276-277-b.
Ekologik talab – bu tabiiy va antropogen omillar ta’sirida tabiatning ishlash qonuniyatlarini bilish va muayyan vaziyatlarda insonning (jamiyatning) unga nisbatan xatti-harakatlarini aniqlash asosida o‘rnatiladigan atrof-muhitga to‘g‘ri munosabat mezon.	Гогарева М.Т. Правовой механизм принятия экологически значимых решений. Автореф. дисс. ... канд. юрид. наук.– Москва, 2011. 28 с.
Ekologik talablar — bu atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash uchun belgilangan normalar va qoidalar majmuidir.	https://www.google.com/search
Ekologik talablar – tabiatga hurmat o‘lchovini ifodalovchi ekologik talablarning bajarilishi, xususan, tabiat qonunlarini, odamlar tomonidan u bilan o‘zaro munosabatlarning kundalik amaliyotida ularga rioya qilinishini hisobga olgan holda, inson xatti-harakatlarining ekologik tozaligini baholash mezon, butun atrof-muhit samaradorligining nafaqat huquqlar, balki din, axloq, axloq o‘lchovi.	Бринчук М.М. Внешние методологические основания развития экологического права: закономерности развития // Экологическое право.– Москва, 2011. № 1. С. 2-7.
Ekologik talablar – qonunchilikda va normativ xujjatlarda belgilangan, tabiatdan oqilona foydalanishni, atrof muhit muhofazasini, inson salomatligi va genetik fondi saqlanishini ta’minlashga qaratilgan majburiy talablar.	Muqimov A.M. Yerdan foydalanish ekologiyasi.– Toshkent, 2022. 129-b
Ekologik xavfsizlik talablari – atrof-muhitga zarar yetkazilishining oldini olish maqsadida belgilanadigan va bajarilishi majburiy bo‘lgan talablar.	O‘zR Vazirlar Mahkamasining “Ekologik xavfsizlik to‘g‘risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi 19.02.2020-yildagi 95-son qarori

Ekologik xavfsizlik — tabiiy muhit va inson hayotiy manfaatlarini xo‘jalik va boshqa faoliyatning mumkin bo‘lgan salbiy ta‘siridan, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan, ularning oqibatlaridan muhofaza qilish holati	Морозов В.В., Несолёное Г.Ф. Основы экологической безопасности: Учебное пособие. – Самара: СамГАУ, 2003. - 365 с.
--	--

Ekologik talablar inson va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tabiat va jamiyatdagi qonunlarga muvofiq sinxron ravishda, kishilarning atrof-muhitga to‘g‘ri va salbiy oqibatlarsiz ta‘siri asosida ro‘y beradigan harakatlari yig‘indisidan iborat bo‘lgan faoliyati va insoniy xatti-harakatlar yig‘indisidan iborat munosabat shakillari bo‘lishi kerak. Quyidagi sxemada geotizimlar resurslarini oqilona boshqarishda ekologik talablar va ularning prinsiplari keltrilgan bo‘lib, unda kishilik jamiyatining tabiiy va ijtimoiy prinsiplar asosida geotizimdagi faoliyatlariga qo‘yiladigan talablar keltrilgan.

Geotizim resurslaridan oqilona foydalanishning ekologik talablari

1-sxema



Xulosa o‘rnida shuni takidlaymizki geotizimlarda dinamik o‘zgarishlarni inson faoliyatining muntazam ekologik talablar doirasida boshqarish, kelgusida kutiladigan ekologik xavf-xatarlarning oldini olishda muhim amaliy jarayon bo‘ladi. Bu o‘z navbatida kishilik jamiyatining tabiatga nisbatan ekologik munosabati davrining boshlanganligini ifodalovchi muhim qadam bo‘lib hisoblanadi. Kelgusi avlodga tabiatni asrab-avaylab yetkazish, ekologik xavfsiz muhitda yashash, barqaror rivojlanishni ta‘minlash maqsadida



ekologik talablarni ishlab chiqish va tezkor amaliy hayotga tadbiq etishda quyidagilar muhim:

- Hududiy geoeologik vaziyatni tezkor va aniq monitoring qilish;
- Geotizimlarning hududiy ekologik ko'rsatkichlar asosida tasniflash;
- Har bir hudud uchun ekologik muammolar va ularning yechimiga qaratilgan ekologik talablarni joriy etish;
- Ekologik talablarni bajarilishini amaliy jihatdan qonun bilan mustahkamlash;
- Aholining ekologik yuksaklik darajasini oshirish maqsadida yangi ekologik konsepsiya va tamoyillarga asoslangan ta'lim tizimini joriy etish kabi ustuvor vazifaarni yo'lga qo'yish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston 2030 " strategiyasi to'g'risidagi farmoni.
2. United Nations "The Sustainable Development Goals Report 2025"
3. Mirziyoyev Sh. M. "Samarqand iqlim forumi" -Samarqand, 2025-yil 4-aprel.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkmasining 2020-yil 18-fevraldagi 95-son "Ekologik xavfsizlik to'g'risidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
5. <https://earth.org/author/deena/> author by Deena Robinson
6. António G. Secretary-General of the United Nations "The Sustainable Development Goals Report 2025".
7. Drivers-Pressures-State-Impacts-Responses Framework (DPSIR)
8. Perepada L. va Radjabov T "O'zbekistonda bioxilmaxillikni moliyalashtirish siyosati va institutsional sharhi". Toshkent - 2023, 64 bet.
9. Nigmatov A.N., Xolov Y. «Ekologiya asoslari»- Toshkent : "NIF MISH", 2023- 9 b.
10. Эгамбердиева Н., Норкулов Х., Хамзаев А., Холмурадов М., Экологик маданият бўйича ўзбекча изоҳли луғат. Ўқув қўлланма – Тошкент: "Mahalla va oila" нашриёти, 2023. – ____ б.